BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARINING MATN USTIDA ISHLASH JARAYONIDA INTERAKTIV METODLARDAN SAMARALI FOYDALANISH

Buxoro Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi
Haydarova Kamola Ergashboy qizi
"Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ikromov Asadbek Rahim og'li,
A'zamova Aziza G'ofur qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Unda matn bilan ishlash orqali o'quvchilarning savodxonligi, nutqi, mantiqiy va mustaqil fikrlashi rivojlanishi haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, "Insert", "Bumerang", "Aqliy hujum", "Klaster" kabi interaktiv metodlar hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning dars samaradorligini oshirishdagi o'rni tahlil qilingan. Maqolada interaktiv metodlarning afzalliklari va ularni qo'llashdagi muhim jihatlar haqida ham fikr bildirilgan.

Kalit so'zlar: Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, ona tili, matn ustida ishlash, interaktiv metodlar, zamonaviy pedagogika, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi faolligi, mantiqiy fikrlash, mustaqil fikrlash, savodxonlik, nutq madaniyati, o'qish texnikasi, elektron ta'lim, multimedia vositalari, interaktiv doska, Smart Board, Word dasturi, Kahoot platformasi, Quizizz, Insert metodi, Bumerang metodi, Aqliy hujum, Klaster metodi, rolli o'yinlar, muallif o'rindig'i, guruhda ishlash, hamkorlikda ta'lim, innovatsion yondashuv, ta'lim samaradorligi, boshlang'ich ta'lim.

Bugungi kunda dunyo taraqqiyoti fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. XXI asr axborot texnologiyalari, innovatsiyalar va

zamonaviy pedagogik yondashuvlar asri sifatida insoniyat taraqqiyotida alohida o‘rin egallamoqda. Jamiyatning barcha sohalarida bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi davrda ta’lim jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish va ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Ta’limning poydevori boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarning savodxonligi, nutqi, fikrlashi, dunyoqarashi va ma’naviy tarbiyasi shakllanadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda qo‘llaniladigan metodlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, qiziqarli va samarali bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayoni o‘quvchilarning to‘g‘ri o‘qishi, ravon so‘zlashi, fikrini erkin ifodalashi va mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish o‘quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi, ularni mustaqil ishlashga undaydi hamda bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishini yanada kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Matn bilan ishlash orqali o‘quvchilarning o‘qish texnikasi, savodxonligi, lug‘at boyligi va nutq madaniyati shakllanadi. Bundan tashqari, o‘quvchilar matn mazmunini tushunish, voqealarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini bayon qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladilar.

Matn ustida ishlash avvalo harflarni o‘rganishdan boshlanadi. O‘quvchilar “Alifbe” va “Husnixat” darsliklari orqali harflarni tanish, ularni to‘g‘ri talaffuz qilish va yozishni o‘rganadilar. Bu bosqich bolaning keyingi savodxonligi uchun juda muhim hisoblanadi. Chunki harfni to‘g‘ri o‘rgangan bola keyinchalik so‘z va gaplarni ham to‘g‘ri yozadi va o‘qiydi.

Bola asta-sekin o‘qishni o‘rganar ekan, bo‘g‘in, so‘z, gap va matn bilan ishlash jarayoniga kirib boradi. Shu orqali uning lug‘at boyligi oshadi, mustaqil fikrlashi rivojlanadi va o‘qigan ma’lumotini tahlil qilish qobiliyati shakllanadi. Matn ustida ishlash o‘quvchining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.Chunki matnni tushunish va tahlil qilish uchun bola voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglay olishi kerak bo‘ladi.

Bugungi kunda matn ustida ishlash jarayoni faqatgina oddiy o‘qish bilan cheklanib qolmaydi. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning ijodiy fikrlashi, mustaqil ishlashi va o‘z fikrini erkin ifodalashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlar — bu o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydigan, mustaqil fikrlashini rivojlantiradigan hamda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlikni ta’minlaydigan ta’lim usullaridir. Ushbu metodlar orqali dars jarayoni qiziqarli va samarali tashkil etiladi.Hozirgi davr o‘quvchilari oddiy an’anaviy dars usullaridan tez zerikadi. Shu sababli o‘qituvchi dars davomida turli interaktiv metodlardan foydalanishi zarur. Interaktiv metodlar o‘quvchilarning diqqatini jamlaydi, darsga qiziqishini oshiradi va ularni faol ishlashga undaydi.

Interaktiv metodlarning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi rivojlanadi;
- darsga qiziqish ortadi;
- nutq va muloqot ko‘nikmalari shakllanadi;
- jamoada ishlash malakasi rivojlanadi;
- bilimlarni mustahkam o‘zlashtirishga yordam beradi;
- o‘quvchilar erkin fikr bildirishga o‘rganadi.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida interaktiv metodlardan foydalanish ayniqsa matn ustida ishlash jarayonida samarali natija beradi.Bugungi kunda ko‘plab maktablar zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan.Elektron doskalar, kompyuterlar, planshetlar va proyektorlar dars jarayonini samarali tashkil etishga

yordam bermoqda.Masalan, “Smart Board” interaktiv doskasi orqali o‘quvchilar matndagi so‘zlarni to‘g‘ri tartibda joylashtirib, yaxlit matn hosil qilishi mumkin. Bu esa ularning fikrlashi va diqqatliligini rivojlantiradi.

Multimedia taqdimotlari orqali matn mazmunini rasmlar, videolar va animatsiyalar yordamida tushuntirish mumkin. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘rgazmali vositalar orqali bilimni tezroq qabul qiladilar.

Oddiy “Word” dasturi yordamida ham turli topshiriqlar tayyorlash mumkin. Masalan:

- matndagi imlo xatolarini topish;
- tushib qolgan harflarni to‘ldirish;
- gaplarni to‘g‘ri tartibga keltirish;
- so‘zlarning ma’nosini aniqlash.

Bunday mashqlar o‘quvchilarning savodxonligini oshiradi va diqqatini rivojlantiradi.Shuningdek, Kahoot! va Quizizz kabi platformalar yordamida matn yuzasidan tezkor savol-javoblar va viktorinalar tashkil etish mumkin. Bu platformalar o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lib, darsni o‘yin shaklida tashkil etishga yordam beradi.Masalan: “Insert” metodi, “Bumerang” metodi, “Rolli o‘yinlar” metodi, “Aqliy hujum” metodi, “Klaster” metodi, “Muallif o‘rindig‘i” metodi.

“Insert” metodi metod orqali o‘quvchilar matnni o‘qib, tushungan va tushunmagan joylarini maxsus belgilar bilan belgilab chiqadilar. Ushbu usul o‘qituvchiga o‘quvchilarning qaysi mavzuni yaxshi o‘zlashtirgani yoki qaysi joyda qiynalayotganini aniqlash imkonini beradi.

“Bumerang” metodi o‘quvchilar guruhlarga bo‘linadi va matn qismlarga ajratiladi. Har bir guruh o‘z qismidagi ma’lumotni o‘qib, boshqa guruhlarga tushuntiradi. Bu metod orqali o‘quvchilarda jamoaviy ishlash va fikr almashish ko‘nikmalari rivojlanadi.

“Rolli o‘yinlar” metodi matndagi qahramonlarni sahnalashtirish o‘quvchilarda

ijodkorlikni rivojlantiradi. Ushbu metod yordamida bolalar matn mazmunini chuqurroq anglaydi va qahramonlarning xarakterini tushunishga harakat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi o‘quvchilarga faqat matn sarlavhasi beriladi. O‘quvchilar esa shu sarlavhaga qarab matn mazmunini taxmin qiladilar. Bu metod o‘quvchilarning tasavvurini va mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

“Klaster” metodi matndagi asosiy tushunchalar bir-biri bilan bog‘lab tushuntiriladi. Bu esa o‘quvchilarga mavzuni yaxlit holda tushunishga yordam beradi.

“Muallif o‘rindig‘i” metodi orqali o‘quvchilar o‘zlarini muallif o‘rniga qo‘yib, matn yuzasidan fikr bildiradilar yoki hikoyani davom ettiradilar. Bu esa ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

Interaktiv metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular o‘quvchilarni darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Oddiy darslarda o‘quvchi faqat tinglovchi bo‘lsa, interaktiv metodlarda u faol fikrlaydi, javob beradi va mustaqil ishlaydi.

Bundan tashqari:

- o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi oshadi;
- dars samaradorligi yuqori bo‘ladi;
- tortinchoq o‘quvchilar ham faol qatnashadi;
- o‘quvchilarda ijodiy fikrlash shakllanadi;
- nutq madaniyati rivojlanadi.

Shu bilan birga, interaktiv metodlar o‘quvchilarni kelajak hayotga tayyorlaydi. Chunki ular muloqot qilish, jamoada ishlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini egallaydilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlash jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Zamonaviy metodlar yordamida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va bilimlarni mustahkam egallashiga yordam beradi.Ayniqsa, multimedia vositalari va

interaktiv metodlardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos keladi. Chunki bu yoshdagi bolalar ko‘proq o‘yin, rasm va qiziqarli mashg‘ulotlar orqali bilimni tezroq qabul qiladi.

Kelajakda ta’lim sifati ko‘p jihatdan o‘qituvchilarning zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qay darajada samarali qo‘llay olishiga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli har bir pedagog o‘z ustida muntazam ishlashi, yangi metodlarni o‘rganishi va dars jarayonida samarali foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. — Toshkent: Fan, 2017.
2. Ishmuhamedov R. Ta’limda innovatsion texnologiyalar**.** — Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
3. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent, 2018.
4. Jumayev M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi**.** — Toshkent: Ilm Ziyo, 2020.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar**.** — Toshkent: Moliya, 2016.
6. Yo‘ldoshev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish. — Toshkent, 2019.
7. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. — Toshkent, 2020.
8. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha davlat ta’lim standartlari va metodik qo‘llanmalar. — Toshkent, 2021.